



"KULGI ORTIDAGI HAQIQAT: *MUSHKUL ZAMONLAR* ASARIDA DIKKENSNING JAMIYAT TANQIDI"

Mamatova Shahribonu Badriddin qizi

*ToshDO‘TAU Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik 2-kurs
magistranti*

shakhribunumamatova@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqola Charlz Dikkensning *Mushkul Zamonlar* asarida satiraning ijtimoiy tanqid vositasi sifatida qo‘llanilishini tahlil qiladi. Roman sanoat inqilobi davridagi ingliz jamiyatining og‘ir va murakkab vaziyatini ko‘rsatib beradi. Dikkens jamiyatdagi muammolarni kinoya bilan tanqid qilib, ijtimoiy va iqtisodiy nohaqliklarni hajviy shaklda ochiqlab beradi. Maqolada asardagi til, qahramonlar va muhit orqali hazilning qanday ifodalanganligi va uning satira bilan qanday uyg‘unlashgani o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Kinoya, tanqid, satira, hazil, yumor

Kirish. Adabiyot aksar holatlarda haqiqatning aksidir va ko‘p hollarda jamiyatdagi yaxshi va yomon tomonlarni ijodiy hamda tasavvuriy usulda ifodalash vositasi hisoblanadi. Adabiy til oddiy nutqdan farq qiluvchi, o‘quvchini jalb qiluvchi va asarning maqsadini kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Hazil va satira adabiyotda yaqin, lekin farqli uslublardir. Hazil — o‘quvchini kuldiradigan va ko‘ngil ochadigan adabiy vositadir. Satira esa jamiyatdagi kamchilik va illatlarni tanqid qilish, ularni kinoya bilan ochib berish san’ati hisoblanadi. Satira ko‘pincha ironiya, kinoya, hayratlantiruvchi oshirib ko‘rsatish kabi vositalardan foydalanadi. Hazil oddiy kulgi uchun ishlatilsa, satira ko‘pincha ijtimoiy tanqid maqsadida qo‘llaniladi.



XIX asr boshlarida Angliyada sanoat inqilobi tufayli ishchi qatlam mehnati qattiq **suiiste'mol** qilindi va bu holat adabiyotda kuchli aksini topdi. Viktoriya davri yozuvchilari, jumladan Charlz Dikkins, jamiyatni tanqid qilishda hazil va satiradan foydalangan. Ular o'quvchilarni bilim olishga, mustaqil fikrlashga undagan.

Viktoriya davri yozuvchilari asarlarida faqat rasmiy tilni, hazilni esa me'yorida o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun qo'llagan. Bu ularning asarlari zamon va makondan qat'iy nazar qabul qilinib, xalqaro miqyosda qadrlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois Dikkinsning asarlaridan hajmi kichik bo'lsa-da, mazmun jihatdan boshqa yirik asarlari bilan teng darajada ahamiyatli "Hard times" o'zbek tiliga 2022-yil Xonimqul Tojiyev, Dilnoza, Mohidil va Shahnoza Xonimqulovalar tomonidan "Mushkul zamonlar" deya tarjima qilinib, o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi.

Ushbu maqolada Dikkins kulgu ostiga olgan holatlar ortida nima yashirin ekanligini ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilib tag ma'nosi qisman ochiqlab beriladi.

Asosiy qism. Charlz Dikkinsning "Mushkul zamonlar" romanida yumor va satiraning o'zaro bog'liqligi. Charlz Dikkins realist, yumorist, satirik va hatto *feminist* sifatida e'tirof etiladi, ayniqsa uning *Mushkul zamonlar* asari misolida. Dikkins o'zining satirik yondashuvi orqali o'sha davr mafkuralarini keskin tanqid qilib, kinoyadan samarali foydalangan. U ayollarni ijtimoiy hayotda shaxs sifatida emas, balki erkaklar hukmronligi ostidagi mavjudot sifatida tasvirlab, ularning jamiyatdagi zaifligini fosh etgan. Dikkinsni naturallik tamoyillariga sodiq yozuvchi sifatida ham ko'rish mumkin, sababi u voqealar rivoji va obrazlarni nihoyatda realistik ruhda tasvirlagan. Shu bois asar viktoriya davri o'quvchilari orasida keng ommalashgan. Bundan tashqari, u o'zining to'qima *Coketown* shahridagi mavjud muammolarni tanqid qilish uchun istehzo vositasidan keng foydalangan. Asar jiddiy mazmunga ega bo'lishiga qaramay, Dikkins uni badiiy tasvir vositalari, obrazlilik va yumorga boy yozish uslubi bilan jonlantira olgan.



Charlz Dikkens o‘z asarlarida, xususan *Mushkul zamonlar* romanida, yumorni asosan **obrazlar yaratishda** qo‘llagan. Uning yumori qahramonlarning **tashqi ko‘rinishi, xulqi va o‘zini tutish tarzida** yaqqol namoyon bo‘ladi. Asardagi yumor bevosita kulgi uchun emas, balki **ma’lum maqsad va g‘oya bilan** yaratilgan bo‘lib, u o‘quvchini **jamiyatdagi muammolar haqida o‘ylantirish va xabardor etishga** xizmat qiladi. Bu jihat ayniqsa yozuvchining **qahramonlarning ruhiy va jismoniy tasvirini** berish uslubida yaqqol seziladi.

The scene was a plain, bare, monotonous vault of a school-room and the Speaker’s square forefinger emphasized his observations by underscoring every sentence with a line on the schoolmaster’s sleeve

Bu joy ko‘rimsiz, devorlari ship-shiydam, sovuq yerto‘laga o‘xshagan sinfxona bo‘lib, notiq o‘z fikr-mulohazalarining ta’sirchanligini oshirish uchun to‘mtiq ko‘rsatkich barmog‘ini o‘quvchilarning yengiga tekkizardi.

Ushbu satrlar asarda tasvirlangan ta’lim tizimiga nisbatan ochiq istehzoni ifodalaydi. Charlz Dikkens *Mushkul zamonlarda* o‘sha davr ta’lim tizimini tanqid qilib, Mr. Gradgrind obrazida o‘qituvchining bolalarga bilimga muhabbat uyg‘otish o‘rniga, qo‘rquv va bosim orqali ta’sir o‘tkazishga urinayotganini ko‘rsatadi. Bu holat viktoriya davri jamiyatida keng tarqalgan muammolardan biri edi. Dikkens ushbu tizimni Mr. Gradgrindning g‘ayrioddiy xatti-harakati va sovuq munosabati orqali istehzoli tarzda fosh etadi.

“Plain, bare and monotonous” (ko‘rimsiz, devorlari ship-shiydam, sovuq yerto‘laga o‘xshagan) ifodasi o‘sha davr maktablari va sinflariga nisbatan oddiy xalqda shakllangan salbiy tasavvurni ifodalaydi. Ayniqsa, past ijtimoiy tabaqaga mansub o‘quvchilar doimiy ravishda ta’lim tizimidagi rahbarlar tomonidan mensilmagan va kamsitilgan

“‘Girl number twenty,’ said Mr. Gradgrind, squarely pointing with his square forefinger, ‘I don’t know that girl. What is that girl?’”



Yigirmanchi sonli qiz,-dedi mister Grenggraynd o‘zining tortburchak stulini oldiga cho‘zib,-men unday qizni bilmayman. U qanday qiz?

Charlz Dikkens Sessi Jup obrazida jamiyatning quyi tabaqasiga mansub insonlarning ahvolini ko‘rsatadi. Unga ism o‘rniga raqam bilan murojaat qilinishi — insonning **shaxsiyati, individualligini yo‘qotgan** va tizim ichida **faqat bir birlik sifatida** qaralganini ifodalaydi.

Charlz Dikkens Mister Grenggraynd obrazini nihoyatda batafsil, hattoki mayda tashqi belgilarigacha aniqlik bilan tasvirlaydi. Yozuvchi uni **katta, yupqa qat’iy qimtilgan og’zi va qat’iy, dag’al va buyruqona tovushi** (*a mouth that was wide, thin, and hard set, his voice inflexible, dry and dictatorial*), hamda **kal boshining dikkaygan sochlari** (*hair bristled on the skirt of his bald head*) bilan ifodalaydi. Uning **keng palto, yog’on oyoqlari, chorsi yelkalari** (*a square coat, square legs, and square shoulders*) esa uning ichki dunyosidagi qat’iylilik va mexanik tabiatini ifodalaydi.

Dikkens jamiyatning hukmron tabaqasini yaratishda karikatura uslubidan foydalanib, yengil yumor tarzida ularni ifodalaydi. Ularning bir xil kiyinishlari, bir xil fikrlashlari va bir xil turmush tarzi yozuvchi uchun kinoyali tahlil manbai bo‘lib xizmat qiladi. Mister Grenggrayndning kulgu hissidan butkul mahrumligi esa aksincha, asarning umumiy yumorini kuchaytiradi. Grenggraynd — “o‘z harakati to‘g‘riligiga to‘la ishonadigan odam” — asar oxirida o‘z fikrlarining butunlay xato ekanini anglaydi. Natijada, o‘g‘li Tom o‘g‘riga aylanadi, qizi Luiza esa otasining sovuq va mag‘rur tarbiyasi oqibatida baxtsiz nikoh quradi

“He was a rich man: banker, merchant, manufacturer, and what not. A big, loud man, with a stare, and a metallic laugh. A man made out of a coarse material”

“Xuddi ana shunday yaqin yoki tog‘rirog‘i, uzoq do‘sti boy odam, bank egasi, savdogar, fabrika sohibi va yana allanima balolar. U qopolgavdali



bo'lib, bunday gavgada yetkazish uchun kiyimni rosa cho'zishga tog'ri kelgan bo'lsa ajabmas."

Bu tasvir Charlz Dikkensning Mister Baunderbi obraziga nisbatan istehzoli munosabatini ifodalaydi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali o'rta tabaqaning yuqori jamiyatga singishga bo'lgan ehtirosli intilishini va ularning cheksiz e'tirof istagini tanqid qiladi. Mister Baunderbi o'sha davrda tez sur'atda o'sib borayotgan burjua (o'rta)

sinfining timsoli sifatida gavgdalanadi - boy, ammo madaniyatsiz; muvaffaqiyatli, ammo ma'naviy jihatdan bo'sh. Uning tashqi ko'rinishidagi g'ayritabiiy va kulgili jihatlar Stiven Blekpul, ya'ni mehnatkash quyi sinf vakili obrazi bilan keskin qarama-qarshilikda tasvirlangan. Shu tarzda Dikkens moddiy farovonlik ortidagi ma'naviy bo'shliqni va sinfiy tafovutlarni istehzo orqali ochib ber

He had not much hair. One might have fancied he had talked it off; and that what was left, all standing up in disorder, was in that condition from being blown about by his windy boastfulness

Uning sochlari ko'p emas. Birov sochlarini gapiraverib, bezor qilib yuborganidan qo'rqib tushib ketgan, deb o'ylashi mumkin. Sochining qolgani ham shunchalik tartibsiz ahvoldaki, bunday bo'lishiga sabab egasining o'lgudek maqtanishdan bo'lsa, ehtimol.

Ushbu epizodda janob Bounderbining tashqi qiyofasi uning ichki mohiyati bilan bevosita bog'langan holda tasvirlanadi. U o'zini hech kimning yordamisiz, o'z mehnati va sa'y-harakati bilan yuksak maqomga erishgan shaxs sifatida taqdim etadi. Janob Bounderby tomonidan bildirilgan bu da'vo roman davomida bir necha bor takrorlanib, qahramonning keyingi ma'naviy qulashini yanada kuchaytiruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Asar yakunida uning asl shaxsiyati fosh bo'ladi va bu holat uni ikkiyuzlamachilikning eng yuksak namunasi sifatida ochib beradi. Bounderbining o'zini ulug'lovchi, maqtanchiq va asossiz g'ururga



asoslangan xulqi, garchi qo‘pol va mantiqsiz ko‘rinsa-da, o‘ziga xos kinoyaviy kulgi effektini yuzaga keltiradi.

“Old Stephen might have passed for a particularly intelligent man in his condition”

“...shu turishida uni o‘z davrasida ko‘rgan odam ancha o‘qimishli deb o‘ylashi mumkin”

degan iqtibosda Dikkens ta’limdan yiroq, quyi tabaqaga mansub insonni aql-zakovat egasi sifatida tasvirlaydi. Ushbu fikr orqali yozuvchi Viktoriya davri Londoni ijtimoiy qatlamlari o‘rtasidagi tafovutni bilvosita yoritadi. O‘sha davr jamiyatida quyi sinf odamlari, odatda, aql-idroksiz va hayotiy donolikka ega bo‘lmagan shaxslar sifatida baholangan.

“...she was now, in her elderly days, with the Carolinian style of nose and the dense black eyebrows”

“..qirra burunli va quyuq qora qoshli bu ayol...” deb Missis Sparsit obrazi jamiyatning yuqori tabaqasining axloqiy timsoli sifatida tasvirlanadi. Ijtimoiy mavqei va hokimiyatini yo‘qotgan bo‘lishiga qaramay, u hanuzgacha o‘zini yuqori sinf vakili sifatidek ustun qo‘yadi. U Bounderbiga xizmat qiladi va unga “janob” (“sir”) deb murojaat qiladi. Ushbu murojaat shaklidan u roman davomida haddan tashqari ko‘p foydalanadi — bu esa kinoya va masxara ohangini yuzaga keltiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Dikkens o‘z asaridagi barcha qahramonlar uchun o‘zaro kontrast yaratishga alohida e’tibor bergan. Bu esa ularning ijtimoiy mavqei, axloqiy qadriyati va shaxsiy sifatlarini taqqoslash orqali chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Reychel — muloyim, mehnatkash, past tabaqaga mansub ayol — Missis Sparsit obraziga qarama-qarshi sifatida yaratilgan.

Janob Gradgrindning qizi Luiza — viktoriya davri uchun ideal ayol timsoli sifatida — otasining qat’iy va sovuq tarbiyasi natijasida o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish qobiliyatini asta-sekin yo‘qotadi. Boshqa tomondan, quyi tabaqani ifodalovchi



Sissi hayotga to'la, mustaqil fikrlovchi, erkin va irodali ayol sifatida tasvirlanadi. Roman oxirida Luiza tan oladiki, otasining ma'naviyatsiz, faqat faktlarga asoslangan ta'lim tizimi uning hayotini barbod qiladi.

Bu holat asardagi asosiy kinoyalardan biridir — ya'ni, **faktlar insonni mukammallashtirish o'rniga, uni hissiz va ma'nosiz mavjudotga aylantiradi** g'oyasi orqali Dikpens Viktoriya davrining ma'rifat tizimini tanqid ostiga oladi

Bu jarayon natijasida o'z mohiyatini yo'qotgan faqat inson zotigina emas. *“It had a black canal in it, and a river that ran purple with ill smelling dye”, “U yerda qop-qora zovur bor, daryo bor, undagi suv binafsha rang, sassiq”* Bu tasvir — sanoatlashtirishning vayronkor mohiyatini bevosita fosh etuvchi kulminatsion nutqadek go'yo. Dikpens bu orqali nafaqat jamiyat, balki tabiat ham sanoat taraqqiyoti jarayonida jiddiy zarar ko'rganini ko'rsatadi. Mashinalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangani sari, ular insonning o'ziga xos tabiiylik va insoniylik fazilatlarini siqib chiqara boshlaydi. Natijada, odamlar hayot tarzida mexanizatsiyalashgan, sovuq va avtomatik turmush shakli hukmron bo'lib boraveradi.

Yozuvchi bu jarayonni tasvirlar ekan, inson va tabiat o'rtasidagi paralellikni ta'kidlaydi — ikkalasi ham bir paytning o'zida sanoat tizimining qurboniga aylanadi. Mashinalar insoniyatdagi “insoniylik”ni almashtirib, ijtimoiy tuzumni ruhiy va ma'naviy tanazzul sari yetaklaydi. Odamlar asta-sekin hayot ma'nosini, shaxsiy fikr yuritish qobiliyatini va his-tuyg'ularini yo'qota boshlaydi. Bu metaforik tasvir Dikpensning ijtimoiy realizm uslubining eng muhim jihatlaridan biridir. U texnologik taraqqiyotning tashqi yutug'ini emas, balki uning ichki, ma'naviy va ekologik talofatlarini ko'rsatishga urinadi. Shu orqali yozuvchi sanoatlashtirishning insoniyatga keltirgan “yashirin narxi”ni ochib beradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlildan ayon bo'ladiki, Charlz Dikpensning *Mushkul zamonlar* asari sanoatlashtirishning qorong'i tomonlarini yorituvchi satira namunasi hisoblanadi. Dikpens o'z g'oyasini yetkazishda yumorni asosiy vosita sifatida



qo‘llagan. Qahramonlarning kulgili tasvirlari va ularning tabiati asarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Asar davomida satira va yumor bir-birini to‘ldiruvchi ikki uslubiy vosita sifatida hamohang tarzda olib borilgan. Qahramonlarning komik holatlar orqali yaratilishi — real hayotdagi illatlarga nisbatan bilvosita masxara va tanqid vazifasini bajargan. Satirik ohang esa shu kulgili tasvirlar orqali jamiyatdagi ma’naviy buzuvchilik va ijtimoiy nomutanosiblikni yoritib, o‘quvchida kulgi orqali tafakkur uyg‘otgan. Dikens Viktoriya davridagi London jamiyatini qamrab olgan riyokorlik, ekspluatatsiya va sinfiy adolatsizlikni yumor hamda satira orqali fosh etadi. U real muhitdan farqli, ammo o‘sha davrning ijtimoiy muammolarini to‘liq aks ettiruvchi xayoliy shahar va qahramonlar yaratadi. Shu boisdan, bu asarda yumor va satirani bir-biridan ajratish qiyin, ular o‘zaro uyg‘unlikda mavjud bo‘ladi. Natijada, *Hard Times* romanida yumor jamiyat tanqidining badiiy shakliga aylanadi, asarning o‘zi esa Charlz Dikens ijodidagi eng yorqin satirik asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Charles Dickens. *Hard Times*. Wordworth classics, 2000
2. Charlz Dikens. Mushkul Zamonlar, 2021
3. <https://jdpu.uz/satira-nazariyasi-haqida-mulohazalar/>
4. <https://transport-research.uz/index.php/rs-conf/article/view/499>